

TUPROQ IFLOSLANISHINING STATISTIK TAHLILI

Xudoyberdieva Dilovar Imomnazarovna
Central Asian Medical University

Tuproq ifloslanishi - inson xayot jarayonining oqibatida xo'jalik va sanoat chiqindilarining kelib chiqishi natijasidir. Shaxarlarda, ishchi posyolkalarda, axoli turar joylarida juda ko'p miqdorda xar xil ifloslantiruvchi chiqindi moddalarning tuproqqa yig'ilishi natijasida ular kasallik tarqatuvchi manbalarga aylanib qoladi. Ifloslantiruvchi moddalar ochiq suv xavzalarini, yer osti yer osti suvlarni zararlaydi, qishloq xujalik ekinlariga tushib ular orqali xayvon organizmiga o'tadi. Masalan, xujalik chiqindilari anaerob sharoitda, xavo kirmagan xolatda chirib boshlaydi. Biologik va kimyoviy reaksiyalar oqibatida juda sassiq, xidlar ya'ni sulfid, ammiak, indol, skotol, merkaptal va boshqa zaxarli moddalar xosil bo'ladi, ular atmosfera xavosini buzadi. Axlat va chiqindilar ko'payib turli infeksiyon kasalliklar tarqaladi. Bularning o'simliklar orkali salbiy ta'siri natijasida inson organizmida xavfli kasalliklar kelib chiqadi.

Tuproqni maxsus tadbirlar o'tkazib tozalash qiyin. SHuning uchun tuproqni ifloslanishdan saqlash qonun doirasida o'rnatilishi kerak. Tuproq ifloslantiruvchi, kasallik kuzgatuvchi mikroflorani shartli ravishda 3 guruxga bo'lish mumkin.

1. Odamlardan ajraladigan va boshqa shaxslarga tuproq yoki ozik-ovqatlar orqali o'tadigan biologik omil (masalan: ichak bakteriyalari)

2. Xayvon chiqindilari bilan ifloslangan tuproqdan odamga o'tadigan biologik omil.

3. Patogen mog'orlar, botulizm kabi tuproqda yashovchi mikrofloralar

Tuproqlarning moddalar bilan kuchli ifloslanishiga asosiy sabab sanoat korxonalarining qattiq suyuq chiqindilari xisoblanadi.

-Rangli metallurgiya sanoatidan rangli metal tuzlari

-Mashinasozlik korxonalaridan sianidlar, beriliy birikmalari, margimush.

-Plastmassa ishlab chiqarish korxonalaridan - benzin, efir, fenol

-Azot sanoatidan polesterol, xlorbenzol, kanserogen moddalar

Organik azot, ammiak, organik karbon, nitritlar, xloridlar va sanoat korxonalarining boshqa chiqindilari tuproqni kimyoviy moddalar bilan ifloslaydi. Kimyoviy ko'rsatkichlar qatoriga Sanitariya soni kursatkichi kiritaladi.

Tuproq uz-uzidan tozalanshi yaxshilanib borsa, sanitariya soni yuqorilab «1,0» ga yetib boradi. Tuproq juda ifloslansa bu kursatkich «0,70» ga teng buladi.

A.R.Miroshnikova tajribalariga ko'ra, qora tuproqli yerda tajriba olib borilganda, ushbu maydon:

Chiqindi tashlanmasdan oldingi Koli titri- 1,0

Chikindi tashlangach-0,00001

2 oy o'tgach-0,001

6 oy o'tgach-0,1

1 yildan so'ng-1,0 ga o'z xoliga kaytadi.

Bu xol umumiy mikroblar soniga xam bogliq kechadi. Xar xil kimyoviy moddalar yillar mobaynida yig'ilishi yer osti suvlarini ham ifloslantiradi.

«Tuproqlar va ularning unumdorligini muxofaza qilish tugrisida»gi qonun loyixasi tuproqlarning ekologik funksiyalarini hamda u bilan birga barcha ekologik tizimlarni muhofaza qilishga qaratilgan.

Tuproq unumdorligini oshirish va saqlash bu bevosita tabiiy ozuqa orqali qabul qilinayotgan foydali mikroorganizmlarini, ya'ni probiotik va prebiotiklarning tabiiy manbasi hisoblanadi.

Odam ichak mikroflorasining muhim ko'rsatkichi bo'lgan probiotiklar va ular o'sishiga muhit yaratadigan prebiotiklar (makro- va mikroelementlar) miqdori ularning to'g'ri o'sishi va inson tanasida hamkorlikda yashashi immunitet tizimining asoslaridan biri hisoblanadi. Bu o'z navbatida sog'lom ovqatlanish va sog'lom turmush tarzining asosiy omili hisoblanadi.